IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

TA’LIM SOHASIDA AKADEMIK ERKINLIK MUAMMOLARI

Tursinqulov Nurali Anarbaevich

Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

E-mail: nurturon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada akademik erkinlikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy-falsafiy jihatdan yoritib beriladi. Akademik erkinlik dolzarb va chuqur falsafiy izlanishlar olib boriladigan inson tafakkurining mahsulidir. O‘zbekistonning akademik erkinlik indeksida qanday natijlarga erishilgani tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Akademik erkinlik, ta’lim, jamiyat, pedagog, akademik erkinlik indeksi, kasbiy etika.

Jahonda ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi tafakkur uslubining o‘zgarishi va ma’naviy hayotning erkinllashuvida, iqtisodiy ishlab chiqarishning erkinllashuvi xususiy mulk, konstruktiv raqobat, inson mehnatining qadrlanishida namoyon bo‘lmoqda, ijtimoiy-madaniy sohalarning liberallashuvi xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, ijtimoiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, boshqaruv tizimini liberallashtirishda muqobil uslublarni yaratishni taqozo etmoqda. Globallashuv jarayonlarida davlatning xalq manfaatlarining himoyasini ta’minlash, yagona iqtisodiy makonda madaniyatlar dialogi va ijtimoiy barqarorlikka erishishda erkinlik g‘oyalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda erkinlik g‘oyalari jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida, xususan ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ham o‘z ifodasini topmoqda, “Jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari izchil davom ettirilmoqda”[1].

Akademik erkinlik – bu talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o‘zlarining vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo‘lgan erkinlik tamoyillaridir.[2] Ta’lim muassasalari axborot oqimini nazorat qilish imkoniga ega bo‘lganligi sababli, ular ko‘pincha tashqi tomondan, masalan, davlat tomonidan tazyiqqa va bosimga uchraydilar. Ilmiy doiralar vakillari rasmiylar yoki ba'zi siyosiy guruhlar uchun noqulay bo‘lgan faktlar haqida ma'lumotlarni tarqatishga harakat qilganda, ular jamoat tomonidan tazyiqqa uchratilishi, ishdan bo‘shatilishi, qamoqqa olinishi, xatto o‘limga duchor bo‘lishi mumkin. Masalan, Shimoliy Afrikadagi tibbiyot professori “Go‘daklar o‘limi darajasi” hukumat aytganidan ancha yuqori ekanligini aniqlaganida, u ishini yo‘qotdi va qamoqxonaga tashlandi.

“**Akademik erkinliklar akademiyasi**” xalqaro birlashmasi bunday erkinliklarning ikkita asosiy prinsipini ma'qullaydi:

– Ta'lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot tashkilotining ichida ham, tashqarisida ham har qanday savol tug‘dirishi va haqiqatga intilishi, shu jumladan qarama-qarshi va ommabop bo‘lmagan qarashlar bo‘yicha, kimgadir u yoki bu nuqtai nazar ta'sir qilishidan yoki ta'sir qilmasligidan qat'i nazar, ilmiy ishlar olib borishda to‘liq erkinlik berilishi mumkin.

– Ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari doimiy ishlaydigan xodimlar uchun akademik erkinliklarni cheklashga, shuningdek, o‘zlarining bayonotlarini intizomiy jazo yoki ishdan bo‘shatish uchun sabab sifatida ishlatishga haqli emas.[2]

Akademik erkinlik konsepsiyasi Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va

AQShda akademik madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning barchasida professor-o‘qituvchilar ilmiy izlanishlar olib borishlari va natijalarini hech qanday cheklovlarsiz nashr etishlari mumkin, ammo ilm doiralari yoki akademik kengashlarga bu ilmiy farazlarni isbotlab, ishontirib bera olsagina.


Akademik erkinliklar o‘qituvchining huquqiy maqomini o‘z ichiga oladi. Pedagogik kadrlar huquqiy maqomining muhim tarkibiy qismi ularning ilmiy huquq va erkinliklari hisoblanadi. Akademik erkinlik tushunchasi zamonaviy Yevropa davlatlari va AQShda ancha keng tarqalgan. Akademik erkinlik deganda birinchi navbatda professorlik huquqi tushuniladi. Pedagogik xodimlar, tadqiqotchilar va talabalar ilmiy tadqiqotlarni erkin olib borishlari, shuningdek, bunday tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarni erkin tasarruf etishlari kerak.

Akademik erkinliklar ilmiy va pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ular pedagogik va ilmiy xodimlarni davlat tuzilmalarining ortiqcha bosimidan to‘g‘ri himoya qilishni ta'minlash uchun zarurdir. Akademik erkinliklar o‘qituvchining o‘quv dasturlari va usullarini mustaqil tanlash, o‘z fikrini erkin bayon etish, ilmiy izlanishlarda erkin ishtirok etish va hokazolarni ta’minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, akademik erkinliklar o‘qituvchilarning axborot resurslaridan bepul foydalanish va ta’lim tashkilotlarini boshqarishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga, akademik erkinliklardan foydalanish boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalarini, shuningdek talablarni buzmasligi kerak.

Dunyo bo‘yicha akademik erkinlik indeksi(2022-yil)[4]



Yangilangan akademik erkinliklar ko‘rsatkichiga nazar solsak, **O‘zbekiston** o‘z o‘rnini nisbatan yaxshilab oldi. Markaziy Osiyoda Qirg‘iziston bu indeksda



yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Turkmaniston bu haqida ochiq ma'lumotlarni taqdim qilmaganligi sababli indeksga kiritilmadi. Ammo vaziyatni salbiy deb taxmin qilish mumkin. Har qanday davlat rivoji nafaqat insonlarning eng avvalo ilmiy izlanishlarning erkinligiga bog‘liq. Mamlakatimizda Oliy ta'lim muassasalariga “o‘z-o‘zini moddiy ta'minlovchi” maqomi berilishi kutilayotgan bu paytda, ushbu indeksda yuqorilashimiz quvonarli holat. Akademik erkinlik indeksida bundan ham yuqori pog‘onalarga erishishimiz zarur.

Akaedemik erkinlik indeksida yanada yuqorilashimiz uchun O‘zbekiston Respublikasining yangi qabul qilinayotgan “O‘qituvchi maqomi to‘g‘risida”gi qonunida professor-o‘qituvchilar quyidagi akademik huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi kerak:

1. O‘qitish erkinligi, o‘z fikrini bildirish erkinligi, kasbiy faoliyatga aralashmaslik.

2. Ta'lim va tarbiyaning pedagogik jihatdan asoslangan shakllari, vositalari, usullarini tanlash va ulardan foydalanish erkinligi.

3. Alohida o‘quv predmeti, kursi, fan (modul) bo‘yicha amalga oshirilayotgan ta’lim dasturi doirasida ijodkorlik tashabbusi, mualliflik dasturlari va ta’lim va tarbiya usullarini ishlab chiqish va qo‘llash huquqi.

4. Darsliklarni tanlash huquqi, o‘quv qurollari, ta'lim dasturiga muvofiq va ta'lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘qitish va tarbiyalashning materiallari va boshqa vositalari.

5. Ishlab chiqishda ishtirok etish huquqi ta'lim dasturlari, shu jumladan o‘quv rejalari, kalendar o‘quv jadvallari, ish mavzulari, kurslar, fanlar (modullar), uslubiy materiallar va ta'lim dasturlarining boshqa tarkibiy qismlari.

6. Ilmiy, ilmiy-texnikaviy, ijodiy, tadqiqot faoliyati, eksperimental va xalqaro tadbirlar, ishlanmalar va innovatsiyalarda ishtirok etish.

7. Kutubxonalar va axborot resurslaridan bepul foydalanish, shuningdek, ta'lim tashkilotining mahalliy normativ hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish huquqi. ta'lim faoliyati, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari va ma’lumotlar bazalariga, ta’lim va o‘quv materiallari, muzey fondlari, ta'lim faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda pedagogik, ilmiy yoki tadqiqot faoliyatini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ta'lim faoliyatini ta'minlashning moddiy-texnik vositalari.

8. O‘zbekiston Respublikasining qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotning o‘quv, uslubiy va ilmiy xizmatlaridan bepul foydalanish huquqi.

9. Ta’lim tashkilotini boshqarishda, shu jumladan kollegial boshqaruv organlarida ushbu tashkilotning ustavida belgilangan tartibda ishtirok etish huquqi.

10. Ta’lim tashkiloti faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda, shu jumladan boshqaruv organlari va jamoat tashkilotlari orqali ishtirok etish huquqi.

11. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan shakllarda va tartibda jamoat professional tashkilotlariga qo‘shilish huquqi.

12. Ta'lim munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish bo‘yicha komissiyaga murojaat qilish huquqi.

13. Kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy etikasi normalarini buzish holatlarini adolatli va xolisona tekshirish huquqi.

O‘zbekistonda pedagogik xodimlarga huquq va erkinliklar, ularning yuqori kasbiy darajasini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy

qo‘llab-quvvatlash choralari, kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun shart-sharoitlar, pedagogik ishning ijtimoiy ahamiyati va nufuzini oshirish kerak.

Akademik huquq va erkinliklar ta’lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilarining huquq va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablariga, pedagogik xodimlarning kasbiy etikasi normalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO ‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. «Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz» 1-jild, -Toshkent, «O’zbekiston», 2019. –B. 539.
2. https://telegra.ph/Akademik-erkinlik-indeksi-nima-Ozbekiston-reytingda-nechanchi-orinda-03-31
3. https://academic-freedom-index.net/
4. Tursinkulov, N. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINI ISLOH QILISH DAVR TALABI: MUAMMO VA YECHIMLAR. *Архив научных исследований*, *2*(1).
5. Allayorov, A., & Tursinkulov, N. (2021). YOSH RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA «TEMUR TUZUKLARI» NING IJTIMOIY-AXLOQIY AHAMIYATI. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 90-93).
6. Tursinkulov, N. A. (2021). ERKINLIK G ‘OYASINING FALSAFIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 831-838.
7. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
8. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
9. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
10. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.
11. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
12. Akramkulovich, S. N. (2020). METADOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.
13. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth.

Academic research in educational sciences, (1), 152-15

14. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.

15. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.

16. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).

17. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.

18. Tursinkulov, N. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISH DAVR TALABI: MUAMMO VA YECHIMLAR. *Архив научных исследований*, *2*(1).

19. Allayorov, A., & Tursinkulov, N. (2021). YOSH RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA «TEMUR TUZUKLARI» NING IJTIMOIY-AXLOQIY AHAMIYATI. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 90-93).

20. Tursinkulov, N. A. (2021). ERKINLIK G 'OYASINING FALSAFIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 831-838.